



YOSHLAR ONGIDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKILLANISHI

Usmanova Sh.Sh

Igamberdiyev D

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchilari

Komiljonova Gulchiroy

Boxovuddinova Mufazzala

Fizika yo'nalishi 101-guruh talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning falsafiy ijtimoiy ong darajasi ijtimoiy mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lib, u barqaror fuqarolik jamiyatini qurishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada yosh avlodda fuqarolik ongini rivojlantirishda ta'lim tarbiya tizimi ommaviy axborot vositalari ijtimoiy institutlar va madaniy merosning o'rni ilmiy – nazariy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Fuqarolik ong, ijtimoiy faollik, axborot makoni, yoshlar tarbiyasi, milliy g'oya, ma'naviy –ma'rifiy tarbiya.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy ongning murakkablashuvi sharoitida jamiyat barqarorligini ta'minlashda fuqarolik pozitsiyasiga ega yosh avlodni tarbiyalash strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki fuqarolik pozitsiyasi bu nafaqat davladga bo'lgan sadoqat balki shaxsning ijtimoiy huquqiy ong darajasi, ijtimoiy adolatda bo'lgan munosabati va faol fuqarolik ishtirokini anglatadi. Ayniqsa mustaqil tafakkurga ega, ongli va mas'uliyati



yoshlarni shakillantirish har qanday demokratik jamiyatning ijtimoiy- madaniy barqarorligini belgilovchi muhim omildir. O'zbekiston Respublikasi amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda fuqarolik ongini oshirish ularda fuqarolik ongini shakillantirish, milliy va umuminsoniy qadryatlarga sodiqlikni tarbiyalash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada fuqarolik pozitsiyasining nazariy asoslari yoshlar ongida uni shakillantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy omillar, shuningdek ta'lim- tarbiya jarayonida bu boradagi yondashuvlarning ilmiy tahlili keltirildi. Fuqarolik pozitsiyasi- bu shaxsning jamiyat va davlatdga nisbatan ongli munosabati ijtimoiy ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorligi, shuningdek fuqarolik burchlarini anglab yetgan holdagi ijtimoiy mas'uliyatdir. Bu tushuncha falsafa sotsiologiya siyosatshunoslik va pedagogika fanlari kesishgan nuqtasida chuqur ilmiy yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, yosh avlod vakillari fuqarolik pozitsiyasini shakillantirish ularning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy faolligi va davlatga sodiq fuqaro sifatida yetishishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi shakllanishining asosiy manbalaridan biri ta'lim –tarbiya tizimidir. Ta'lim muassasalarida milliy g'oya, ma'naviyat asoslari huquqiy bilimlar va fuqarolik jamiyati institutlari haqidagi bilimlar yoshlarning ongiga singdirilishi zarur. Ayni paytda o'quv dasturlariga fuqarolik mas'uliyati, inson huquqlari, vatanparvarlik va ijtimoiy adolat kabi mavzularni integratsiyalash yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantiishda muhim ro'l o'ynaydi. Shu bilan birga yoshlar ongini shakillantirishda ommaviy axborot vositalari ijtimoiy tarmoqlar va blogoesfera ham katta ta'sir kuchiga ega. Ular orqali yoshlar turli mafkuraviy oqimlar g'oyaviy qarashlar va ijtimoiy muammolar bilan tanishadi, shuningdek o'z fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli axborot makonini ma'naviy poklik ilmiylik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida boshqarish davlat va jamiyat oldidagi dolzarb vazifadir. Yoshlarning fuqarolik ongini rivojlantirishda oilaning roli ham alohida e'tiborga loyiq. Oila- birinchi ijtimoiy institut sifatida yoshlarga vatan, xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatni, halollik, vijdnilik, adolat va qonuniylik kabi qadryatkarni



singdiradi. Ayniqsa, ota- onaning shaxsiy namunalarini yoshlar ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi, ijtimoiy loyihalar va volontyorlik harakatlarining rivoji yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda „Yoshlar ishlari agentligi“ „Yoshlar ittifoqi“ kabi tashkilotlar orqali yoshlarga fuqarolik tarbiyasini berish yo'nalishida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda , fuqarolik pozitsiyasi bu tasodifiy shakllanadigan hodisa emas, balki tizimli yondashuv kompleks tarbiya va ilmiy nazariy asosga ega bo'lgan doimiy shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda davlat jamiyat ta'lim tizimi va oilaning uzviy hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Oshlar ongida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish–zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy siyosiy va madaniy barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Fuqarolik pozitsiyasi shunchaki nazariy tushuncha emas, balki yosh avlodning shaxsiy mas'uliyati ijtimoiy faoligi va ongli fuqarolik ishtirokini ifodolovchi amaliy hodisadir. Uning shakllanishi esa tizimli ta'lim tarbiya oilaviy qadryatlar, ijtimoiy institutlarning modaniy ma'naviy omillarning uzviy hamkorligi natijasida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G,M Tansikbayeva, V.A.Kostetskiy. Konstitutsiyaviy huquq asoslari.
2. A.M.Negmatova, D.P. Yoqubaliyeva. Yunogogika.darslik Andijon davlat pedagogika instituti.
3. H.V. Qo'chqorov Fuqorolik jamiyati. Toshkent 2016.
4. O,Karimova, N,Ismatova, O'zbekiston davlati va huquqi asoslari.